

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

BO'LAJAK MENEJERLARNING KELAJAK STRATEGIYASINI YARATISHDA FORSAYT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINING ZARURIYATI VA AHAMIYATI.

Raximova Dilrabo Oktyabrovna

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Biznes va
innovatsion menejment" kafedrasida dotsenti p.f.f.d. PhD

raximova89dilrabo@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak menejerlarning boshqaruv jarayonini samarali tashkil etishda, forsayt texnologiyasidan foydalangan holda strategiya yaratishlari hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligi. Kelajak strategiyasini yaratishda forsaytning roli hamda ahamiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Forsayt, kompetentlik, texnologik, innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, modul, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalari.

Menejment ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligini tugatgan bitiruvchilar boshqaruv kadrlari hisoblanadi va korxonada, kompaniya hamda inson omilini boshqaradi. Menejerga umumiy holda quyidagicha ta'rif beriladi:

- korxonada va kompaniyada egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassis — yollanma boshqaruvchi;
- kompaniya, firma, korxonada, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchi kabi rahbar xodim.

Menejerlar rivojlangan mamlakatlarda maxsus ijtimoiy qatlarni tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida menejer xizmati ishlab chiqarishda va tovarlar muomalasini uyushtirishda zarur omil bo'lib xizmat qiladi.

Menejerning asosiy vazifalariga esa asosan quyidagilar kiradi:

- korxonada faoliyatini rejalashtirish;
- korxonaning uzluksiz faoliyatini tashkil etish va tartibga solish;
- korxonada resurslarini, jumladan inson kapitalini taqsimlash, rahbarlik va yetakchilik qilish hamda qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanish;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- korxonalar faoliyatini monitoringini olib borish;
- korxonalar resurslarini, undan foydalanish samaradorligi va natijalarni ishonchli o'lovlar asosida baholash;
- korxonalar kelajak strategiyasini ishlab chiqish, kelajak faoliyatining barqarorligini ta'minlash.

Hozirgi globallashtirish sharoitidagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muhitda korxonalar, muassasa va kompaniyalar kuchli raqobat tufayli yuqori darajadagi o'zgarishlar hamda noaniqliklarga duch kelmoqda. Menejerdan bunday sharoitda boshqaruvning eng samarali, turg'un, barqaror va tezkor moslanuvchan siyosatini hamda uslublarini o'z faoliyatida qo'llashi talab etiladi. Bu g'oya o'z ichiga korxonalar kelajagini ko'ra bilish va bashoratlash, rejalashtirish, tashqi muhit ta'sirini va raqobatlar bozorini to'g'ri baholay olish hamda korxonalar ichki rivojlanish dinamikasini oldindan ko'ra bilishni o'z ichiga oladi. Boshqaruvning ushbu mexanizmi korxonalar kelajakda rivojlanishini belgilab beruvchi eng muhim omil hisoblanadi va bu bashoratlashning yangi texnologiyalaridan, jumladan farsaytdan foydalanishni talab etadi.

Bo'lajak menejerlar boshqaruvning barqaror, tezkor va moslashuvchan uslublarini qo'llash, qarorlar qabul qilish bilan bir qatorda raqobatbardosh muhitni rasmiy statistikadan uyg'un foydalangan holda tahlil etish hamda mikro va makroiqtisodiy marketing everestik-ijtimoiy uslublar integratsiyasini bosqichma bosqich ta'minlash faoliyati bilan ham yaqindan tanishish kerakligi maqsadga muvofiqdir.

Bu tushunchalarni fanga birinchi marta F.Kotler 1972 yilda kiritdi va ularni xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilotlar bilan bir qatorda foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan madaniy, ijtimoiy, siyosiy va shunga o'xshash tashkilotlarga nisbatan ham qo'lladi.

Shunday qilib, mikro-iqtisodiy marketing korxonalar darajasidagi bozor faoliyatidan iboratdir.

Turli darajadagi boshqarish vositalari va usullari o'zaro farq qilinadi. Korxonalar darajasida asosan marketing-miks vositalaridan foydalaniladi. Undan yuqoriroq darajalarda investitsiya siyosati narxlarni boshqarish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari va shunga o'xshash faoliyat ko'rsatadi.

Bo'lajak menejerlar mikro va makroiqtisodiy jarayonlarni rasmiy statistikadan uyg'un foydalangan holda everestik-ijtimoiy uslublar integratsiyasini bosqichma bosqich ta'minlash jarayonlariga ahamiyat qaratishlari lozim bo'ladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Demak bo‘lajak menejerlar boshqaruvning barqaror va tezkor moslashuvchan uslublarini qo‘llash jarayonida rasmiy statistikadan foydalangan holda mikro va makroiqtisodiy marketing everistik-ijtimoiy uslublar integratsiyasini bosqichma-bosqich ta‘minlash maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida menejerlar, iqtisodchilar va xizmatlar sohasida kadrlar tayyorlashda forsayt texnologiyani alohida fan sifatida o‘qitishga e‘tibor berishmoqda. Ko‘pgina xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining dasturlari forsaytdan faol global miqyosda foydalanishga qaratilgan bo‘lsa, ayrimlari regional forsayt dasturlar hisoblanadi. Masalan, “Kelajakga yo‘naltirilgan strategiya” nomli dastur Orxus universitetida (Daniya), “O‘z kelajagingni yarat: global komanda uchun innovatsion ishlanma” nomli dastur Stenford universitetida (AQSH), “Futurizm va biznes: murakkab muammolarni qanday yechish mumkin” mavzusidagi forsayt dastur Stellenbosh Universitetida (Janubiy Afrika) ishlab chiqilgan. Rivojlangan davlatlar oliy ta‘lim muassasalaridagi bakalavr, magistr va PhD forsayt ta‘lim dasturlari forsaytning asosiy filosofik o‘lchov mezonlari hamda metodologik asoslarini o‘z ichiga olgan umumiy konteksti bilan tanishtirishga qaratilgan.

Forsayt metodologiyasi to‘g‘risida talabalarga forsayt loyihalarda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlar: trendlarni skanerlash, ssenariylar va strategiyalar yaratish, Delfi, aqliy hujum, ekspertlar paneli kabi o‘nlab metodlar to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Shuningdek, strategik tashabbuskorlik, loyihalarni boshqarish, innovatsion faoliyat, o‘zgaruvchan muhitda boshqaruv, texnologiyalarni baholash kabilarga ham yetarli e‘tibor qaratiladi. Forsaytning yana bir muhim aspektlaridan biri boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi hamda statistik, mikro va makroiqtisodiy, marketing, evristik va ijtimoiy uslublar integratsiyasi orqali amalga oshirilishi hisoblanadi.

Rossiyada innovatsion menejment mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlashda “Menejment asoslari”, “Forsayt-menejment”, “Forsayt-texnologiya metodlari”, “Forsayt asosida rejalashtirishga zamonaviy yondoshuv”, “Forsaytda ssenariyli rejalashtirish”, “Forsaytni tashkil etish va boshqarish”, “Marketingda forsayt texnologiya”, “Forsayt –menejmentda ekspertlik”, “Forsayt tadqiqotlarni tashkil etish”, “Strategik dreyf”, “Mutaxassislikda forsayt kompetentlik” va “Yangi bozor forsayti” kabi fanlar o‘qitilib kelinmoqda.

Tahlillar asosida forsayt kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishni 2 xil usulda amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz:



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda forsait texnologiyasini transformatsiyalash.

2. O'quv rejaga forsaitga oid fan kiritish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida davlat, tarmoq, mintaqa, tashkilot, korxon va muassasalarning kelajak faoliyatini strategik rejalashtirishning eng asosiy instrumentlaridan biri forsait-menejmentdir. Forsait menejmentdan foydalanish kelajakda inqirozli vaziyatlar yuzaga kelishini oldini oladi, xavflarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga imkon yaratadi, tashqi muhit va ichki muhit tizimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga erishish yo'llarini ochib beradi hamda korxonaning barqaror faoliyatini va samaradorligini ta'minlaydi. Forsait-menejment korxonaning faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillarni muntazam aniqlash va bartaraf etish, kelajak strategiyasini oldindan ko'ra bilishning innovatsion roli vazifasini bajaradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, bo'lajak menejerlar o'z boshqaruvidagi tarmoq, soha yoki korxonaning uzoq muddatli kelajagini bashoratlash metodlari bo'yicha forsait kompetentlikga ega bo'lishi talab etiladi.

Ta'lim jarayonining hozirgi rivojlanish jarayoni ko'pqirrali, uzluksiz, variativ, maqsadga yo'naltirilgan kompetentlik tizimini talab etadi, bunda asosiy vazifa yakuniy natija, ya'ni raqobatbardosh va o'z-o'zini rivojlantirish hamda baholash qobiliyatlariga ega menejerlar tayyorlash hisoblanadi. O'z-o'zini rivojlantirish va baholash imkoniyatlarini interpretatsiyalash, o'zining shaxsiy kelajak karyerasini rejalashtirish ta'lim forsaiti orqali amalga oshiriladi. Bu yerda "forsait" so'zi "kelajakga nazar" ma'nosida keladi. Buning uchun bo'lajak menejerlar forsait asosida bashoratlash hamda texnologiyalarning sifati va natijadorligini baholay olish kompetensiyalariga ega bo'lishlari talab etiladi. Shu sababli ham "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim muassalarida forsait markazlar tashkil etish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Forsait markazlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar an'anaviy bashoratlashdagidan ancha farq qiladi. Ma'lumki, bashoratlash to'g'risidagi fan sohasi "Futurologiya" hisoblanadi. Ushbu fan nomi lotincha futurum (ya'ni "kelajak") so'zidan olingan bo'lib, global muammolar to'g'risidagi konsepsiyalar, tasavvurlar, fan va texnologiya sohasidagi istiqboldagi o'zgarishlar, masalan nanotexnologiya, sun'iy intellekt, robotlashtirish, aqlli shaharlar loyihalarini izchil o'rganish hamda bashorat qilishdan iboratdir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ADABIYOTLAR

1.Рахимов, О. Д., Хужакулов, А. Х. У., Шомуротов, Б. Х., & Рахимова, Д. О. (2021). Неиспользуемые возможности: дистанционного образования в Узбекистане. *Научный журнал*, (3 (58)), 72-75.

2.Рахимова Д. О. “MENEJMENT” FANINI O’QITISHDA FORSAYT TECHNOLOGIYADAN FOYDALANISH METODIKASI: Raximova Dilrabo Oktyabrovna, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menejment” kafedrası assistenti, mustaqil izlanuvchi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 4. – С. 154-158.

3.Рахимова, Дилрабо Октябровна. "“MENEJMENT” FANINI O’QITISHDA FORSAYT TECHNOLOGIYADAN FOYDALANISH METODIKASI: Raximova Dilrabo Oktyabrovna, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menejment” kafedrası assistenti, mustaqil izlanuvchi." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 4 (2022): 154-158.

4.Рахимова, Д. О. (2022). “MENEJMENT” FANINI O’QITISHDA FORSAYT TECHNOLOGIYADAN FOYDALANISH METODIKASI: Raximova Dilrabo Oktyabrovna, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti “Biznes va innovatsion menejment” kafedrası assistenti, mustaqil izlanuvchi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (4), 154-158.

5.Aliyeva, M. . (2023). CONCEPTS OF FORMING THE MANAGEMENT SYSTEM OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 124–136. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/11413>

6. Aliyeva , M. (2023). THE ROLE OF ECONOMETRICAL MODELING IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE ECONOMIC MANAGEMENT MECHANISM OF INNOVATION PROCESSES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(11), 84–89. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/23178>

7.Aliyeva , M. . (2023). FORMATION OF MANAGEMENT SYSTEM OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ENTERPRISE FOREIGN EXPERIENCES AND POSSIBILITIES OF THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 2), 14–20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/23169>.

8. Aliyeva, Musaffo. "Economic management mechanism of innovation processes in industrial enterprises." International Bulletin of Applied Science and Technology 3 (2023): 287-290.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

